

Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 1874,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,7 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 699,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,3 %), qishloq aholisi soni 1175,1 ming kishini (62,7 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **4,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **7,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,4 mingta nikoh** va **0,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 299,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 %ni) va Buxoro shahrida 276,6 ming kishini (14,8 %), aksincha eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida 17,8 ming kishini (2,5%) va Kogon shahrida 60,2 ming kishi (3,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,6 %ga, Buxoro tumanida 2,4 %ga, Qorako'l, Jondor va Peshko* rumanlarida 1,8 %ga, Qorovulbozor va Romitan tumanlarida 1,7%ga aksincha eng kam o'sish sur'ati Buxoro shahrida 0,1 %ni, Kogon shahrida 0,5 %ni va Olot tumanida 1,4 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 7,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 15,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 16,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (14,4 promilledan 15,9 promillega) va Qorako'l tumanida (17,2 promilledan 17,8 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Buxoro (16,3 promilledan 13,4 promillega) va Vobkent (17,2 promilledan 15,0 promillega) tumanlarda kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	7 607	7 322	96,3
Buxoro sh.	983	1 081	110,0
Kogon sh.	213	191	89,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	407	399	98,0
Buxoro	629	529	84,1
Vobkent	564	497	88,1
G'ijduvon	1 322	1 247	94,3
Kogon	355	352	99,2
Qorako'l	662	696	105,1
Qorovulbozor	69	62	89,9
Peshku	491	460	93,7
Romitan	571	552	96,7
Jondor	647	568	87,8
Shofirkon	694	688	99,2

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,1 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Qorovulbozor tumanida (3,0promilledan 3,9 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Kogon (6,1 promilledan 4,2 promillega), Shofirkon (5,5 promilledan 3,8 promillega), Qorako'l (5,0 promilledan 3,6 promillega) tumanlarida va Kogon shahrida (6,2 promilledan 4,8 promillega) shahrida kuzatildi.

Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	2 317	1 930	83,3
Buxoro sh.	369	352	95,4
Kogon sh.	91	71	78,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	117	89	76,1
Buxoro	158	140	88,6
Vobkent	174	137	78,7
G'ijduvon	383	339	88,5
Kogon	110	77	70,0
Qorako'l	191	139	72,8
Qorovulbozor	13	17	130,8
Peshku	129	100	77,5
Romitan	166	146	88,0
Jondor	188	160	85,1
Shofirkon	228	163	71,5

Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i o'simtalardan, 4,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 37,7%i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 17,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,1 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 24,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 1,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish.

2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 5,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,3 ming kishi



Tabiiy o'sish:
5,4 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,4 ming nikoh va 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,3 va 0,9 promilleni tashkil etdi.



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	3 380	3 387	100,3	498	438	88,0
Buxoro sh.	487	461	94,7	160	133	83,1
Kogon sh.	98	104	106,2	30	23	76,7
<i>tumanlar:</i>						
Olot	205	173	84,4	15	14	93,3
Buxoro	277	259	93,6	41	39	95,1
Vobkent	233	238	102,2	19	25	131,6
G'ijduvon	453	442	97,6	58	65	112,1
Kogon	121	147	121,5	23	22	95,7
Qorako'l	302	322	106,6	32	12	37,5
Qorovulbozor	24	26	108,3	2	4	2 m.k
Peshku	226	263	116,4	28	17	60,7
Romitan	289	276	95,5	31	24	77,4
Jondor	375	412	109,9	28	33	117,9
Shofirkon	290	264	91,1	31	27	87,1

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,7	1,6
Ko'chib ketganlar	2,2	2,4
Migratsiya saldosi	- 0,5	- 0,8

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Olot (minus 0,1 ming kishi), Gijduvon (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida va Buxoro shahri (minus 0,6 ming kishi) qayd etildi.